

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISSN - 3093-8791

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 25-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Karimov Rustam

TO'QUV JARAYONIDA TANDA VA ARQOQ IPLARINING O'ZARO ISHQALANISHINING SIFAT VA ISH UNUMDORLIKGA TA'SIRINI O'RGANISH 5-11

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Toxirov Kozim

MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANIB QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI DEGRADATSIYAGA UCHRASH HOLATLARINI MONITORING QILISH 12-15

TARIX FANLARI

Rahmatov Muhiddin

XALQ DORILFUNUNI TARIXI VA FAOLIYATI 16-19

Norov Shuhrat

ZARAFSHON VOHASI YOSHLARI MISOLIDA: IJTIMOY FAOLLIK VA IQTISODIY ERKINLIK 20-23

Abdimurodova Zebiniso

TERMIZ MUZEYI — O'RTA OSIYO JANUBIDAGI ILK MUZEY 24-29

IQTISODIYOT FANLARI

Олеся Авдошкина

ВНЕДРЕНИЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ПРАКТИК ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА 30-35

Суюнова Саодат

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ И ЭКОТУРИЗМА 36-41

FILOLOGIYA FANLARI

Zokirova Barchinoy

LAKONIZMNING ADABIY-NAZARIY ASOSLARI VA USLUBIY TAMOYILLARI 42-45

Eshchanova Mavjuda

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIA DISKURSIDAGI EVFEMIZMLARNING MADANIY FARQLARI VA ULARNING TARJIMADA SAQLANISHI MASALALARI 46-49

Razikov Baxtiyor

EMOJI VA HASHTAG BIRLIKLARI NEOLOGIZM SIFATIDA: FUNKSIONAL-PRAGMATIK KUZATUV 50-52

YURIDIK FANLARI

Nishanov Sanjar

SUDYALAR HUQUQIY ONGI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OB'EKTIV VA SUB'EKTIV OMILLAR 53-59

PEDAGOGIKA FANLARI

G'aniyev Shaxzod

TARIX O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KONTENT YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI 60-65

Najmetdinova Nargiza

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI 66-69

TIBBIYOT FANLARI

Yuldasheva Zulkhumor

COMPARATIVE OBSERVATION OF ARRHYTHMIAS IN HEALTHY PREGNANT WOMEN AND
THOSE WITH MITRAL VALVE PROLAPSE: A CLINICAL PERSPECTIVE 70-73

SIYOSIY FANLARI

Toshpulatov Shohruxbek

MARKAZIY OSIYODAGI LOGISTIK TARMOQ 74-80

FILOLOGIYA FANLARI

LAKONIZMNING ADABIY-NAZARIY ASOSLARI VA USLUBIY TAMOIYILLARI

Zokirova Barchinoy Maxmud qizi

Tayanch doktorant

Toshkent davlat transport universiteti

Email: keldiyorovab@gmail.com

Tel: +998996380798

Annotatsiya. Ushbu maqola nutqda va badiiy adabiyotda fikrlarni qisqa va ixcham qilish san'ati bo'lgan lakonizmning amaliyotda namoyon bo'lishini tadqiq qiladi. Xususan, bu uslubning tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi o'rni va ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi va qiyosiy tahlil qilinadi. Lakonizmning nazariy asoslari va uslubiy tamoyillari va alohida xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Lakonik uslub nafaqat badiiy adabiyotda, balki lingvistikada ham ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilganligi va misollar bilan to'ldirilganligi fikrimiz dalilidir. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, "qisqalik" yoinki "lakonizm" atamasi nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik sohasida ham keng tarzda qo'llanilgan va hattoki ma'lum bir tadqiqotning obyekti sifatida ham o'rganilishi mumkin ekanligi tadqiqot davomida ilmiy asoslangan holda yoritib borilgan.

Kalit so'zlar: lakonizm, lakonik uslub, nuqtadonlik san'ati, muxtasarlik, kommunikativ samaradorlik, siqqlik.

LITERARY-THEORETICAL BASIS AND STYLISTIC PRINCIPLES OF LACONISM

Zokirova Barchinoy Makhmud qizi

PhD student

Tashkent State Transport University

Annotation. This article examines the practical manifestation of brevity – the art of briefly and concisely expressing thoughts in oral and artistic speech. In particular, the role and significance of this style in linguistics and literary criticism are discussed, and a comparative analysis is conducted. The theoretical foundations, methodological principles, and features of brevity are considered. Our opinion is supported by the fact that brevity has been studied by many scientists, not only in literary criticism, but also in linguistics, and that it is replete with examples. Based on the above, it can be argued that the term "brevity" or "brevity" is widely used not only in literary criticism, but also in linguistics, and can even be the subject of a special study, which was scientifically proven during the survey.

Key words: laconism, laconic style, the art of dotting, brevity, communicative effectiveness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i7/n08>

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda tilning ixchamligi uning kommunikativ samaradorligini oshirishga yordam beradigan yetakchi omillardan biridir. Til qanchalik lo'nda, aniq va puxta ifodalansa, shunchalik ta'sirli va chuqur mazmunga ega bo'ladi. Adabiyotshunoslikda va tilshunoslikda nutqdagi ixcham ifoda shakllari an'anaviy tarzda til vositalari iqtisodini o'rganish muammolari bilan bog'liq holda ko'rib chiqilgan va bugunga qadar o'rganib kelinmoqda. Badiiy adabiyotda tilni xarakterlovchi va uning obrazlilikidan paydo bo'ladigan asosiy xususiyatlaridan biri ham aynan qisqalik va ravonlikdir. Har qanday mazmundagi fikrning sodda va ravon ifodalanishi kitobxon uchun ma'lum darajada qulaylik yaratadi va qiziqishlarining yanada ortishiga sabab bo'ladi.

Darhaqiqat, badiiy adabiyot ham fikrni sodda va tushunarli tilda, keng mazmunni ixcham jumalarga singdira olishi bilan jozibali. Xalq tilining ana shu xususiyati haqida A.M.Gorkiy yana quyidagicha fikrni bildiradi: "Xalq tiliga yaqin bo'l", "Ikki-uch so'zdan tasvirni yaratuvchi soddalik, qisqalik va sog'lom kuch izla" "So'zning soddaligida - buyuk hikmat bor, maqollar va xalq qo'shiqlari har doim qisqa, ularda butun boshli kitoblarda ifodalanadigan mazmun aks etadi". [1; 59-B] Demakki, jumalar qanchalik muhtasir bo'lsa, mazmun ham shu qadar chuqur va tushunarli bo'ladi. "Lakonizm" atamasi esa aynan matndagi va nutqdagi qisqalikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Lakonizm – bu nutq yoki matnda fikrlarni minimal miqdorda so'z bilan, lekin maksimal darajada aniq va ta'sirli tarzda ifodalash san'ati. Uning adabiyotdagi ahamiyati nafaqat qisqalikda, balki har bir so'zning o'ziga xos semantik og'irlikka ega bo'lishidadir. Lakonizmning tarixiy ildizlari qadimgi Sparta madaniyatiga borib taqaladi, u yerda qisqa va tushunarli javoblar madaniyatning bir ko'rinishi sifatida qaralgan. Lakonizm nafaqat badiiy asarlarda, balki ilmiy, publitsistik va hattoki kundalik muloqotda ham samarali vosita hisoblanadi. Lakonik uslubning kelib chiqishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Yunonistonda Sparta aholisi o'zlarining qisqa va tushunarli javoblari bilan mashhur bo'lgan. Tarixchilarning yozishicha, Filipp Makedonskiy Sparta shahrining darvozasiga keladi va shaharni bosib olishini, kulini ko'kka sovurishini aytadi va shahar aholisiga tahdid qiladi. Spartaliklar javob tariqasida bitta so'zdan iborat bo'lgan jumla ishlatadilar: "Agar". Bu tarixiy misol lakonizmning mazmun va mohiyatini to'liq ochib beradi. "Lakonik" so'zi esa aynan shu mintaqa nomidan (Lakoniya) olingan. Keyinchalik bu uslub antik adabiyotda, xususan, Horace va Cicero, Gomer va Platon asarlarida o'z aksini topgan. Ayniqsa ushbu olimlarning yozma manbalarida, qisqa savol javobga asoslangan suhbatlarida lakonik uslubdan samarali foydalanilganiga guvoh bo'lamiz.

Aksariyat mashhur so'z ustalari lakonizmdan unumli foydalanib, qisqalikka erishishni eng muhim ijodiy vazifa deb hisoblashgan va stilistik talab sifatida qabul qilishgan. Ayrim adabiyotshunoslik manbalarida lakonizm atamasi "muhtasirlik", "siqqlik" va "nuqtadonlik" tarzida ham ifodalangan. Bir so'z bilan ifodalanganda "lakonizm" atamasi ma'lum darajada "qisqalik" so'zi bilan ekvivalent bo'la oladi. Qisqalik esa G'arb va Sharq adabiyotida birdek muhim va aksariyat yozuvchilar tomonidan afzal ko'riladiga uslubdir.

Xususan, Grant Faulkner shunday deydi: "Haqiqatan ham, qisqa shakl yozuvchidan ko'proq kamtarlikni talab qiladi. Siz ba'zi bir so'zga boy va uslubiy bo'yoqdorlikka burkangan asarlar singari diqqatni o'ziga jalb qilish uchun yozmayapsiz, balki voqealarning barcha nozikliklarini namoyish qilgan holda, aynan o'ziga mos joyda mos keladigan so'zni tanlab olish uchun yozyapsiz. Aslida qisqalik estetikasi nafaqat qisqa asarlarga taalluqli. Men ko'p yozganimda ham, «maksimal darajada tushunarlilik»ni maqsad qilmasdan, iboralar orasidan qaysi so'zlarni olib tashlab, paragraflar va boblarni qanday qilib ishoralar bilan harakatlantirish mumkinligi haqida fikr yuritaman. Men romanimning boblari orasidagi matnlarni bog'lash o'rniga, ba'zi joylarda bo'sh maydonlar yaratishni tasavvur qilaman. Qoralamamdan butun bir sahifalarni olib tashlaganimda esa, go'yoki narsalari uyg'unlashmagan javonni tozalagandek yoqimli zavqni his qilaman." [2; p 21]

Lakonizm atamasi nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslikda ham keng tarzda qo'llaniladigan va o'rganiladigan til vositasi hisoblablanadi. O'tgan asrning 80-yillarida chet el tilshunoslari P.Passy, G.Suit, O.Jespersen va boshqalarning ishlari ushbu muammoga

bag'ishlangan edi. Rus tilshunosligida Boduen de Kurtene birinchi marta lakonizm va allagizmlarga e'tibor qaratdi. Badiiy matnlarning lingvistik tahlili V.V. Veresaeva faqat til va nutqning lakonik shakllari keraksiz, og'ir narsa sifatida yo'q qilinishi kerak bo'lgan qo'shimcha vositalar va shakllar emasligini tasdiqlaydi. Bu til rivojlanishining eng yuqori bosqichi bo'lib, ixcham, ammo mazmuniga zarar yetkazmaydigan, aksincha, o'z fikrini siqib ifodalash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs tilni mahorat bilan o'zlashtirib oladi, undan foydalanish vositasi sifatida foydalanadi, badiiy maqsadlar va muallif niyatiga xizmat qiladi.

Har bir aniq holatda qisqartirishning usulini tanlash kommunikativ vazifaga va matnning xususiyatlariga bog'liq. Shunday ekan, badiiy adabiyotda eng munosib so'zlarni tanlash, manfaatsiz so'zlardan voz kechish va maksimal natijaga erishish barcha yozuvchi va shoirlarga xos bo'lgan qobiliyatlardan emasligi barchamizga ma'lum. Eng mohir qalam ustalarigina o'z ijodlarida lakonik uslubdan samarali foydalanishi va kitobxon uchun o'zgacha zavq taqdim eta olishi mumkin. Lakonizm yozuvchining mahoratini sinovdan o'tkazadi, chunki yozilgan har bir so'z ma'lum bir vaznga va vazifaga egadir. So'zlar shunday mahorat bilan tanlanadiki, kitobxon asosiy fikrni ortiqcha tafsilotlarsiz o'zlashtiradi. Bu uslub hikoya, she'r, maqol va boshqa turdagi dramatik asarlarda ortiqcha tasvir va detallardan voz kechib, kitobxonga o'zi xulosa qilishi va mantiqiy fikrlashiga imkon yaratadi.

Lakonizmning asosiy tamoyillari ham aniqlik va obrazlilikni o'zida mujassam ettirishidir. Bu uslubda kompozitsion jihatdan voqea va hodisalar ketma-ketligi matnning va ixcham shaklda tuzilganligi, ortiqcha epizodlardan, sahnalardan va tasvirlardan voz kechilganligi yozuvchi uchun asosiy mezon sifatida ahamiyatlidir. Stilistik jihatdan esa soddalik, tabiiylik va murakkab qurilmalardan foydalanmaslik holatlari ko'zga tashlanadi. Bu uslub orqali o'quvchi o'z dunyoqarashini kengaytirishi, hayot mohiyatini, insoniy munosabatlarni o'zgacha tarzda anglab yetishi, yashirin tarzda ifodalangan ma'lumotlarni sintez qilish qobiliyatini o'zlashtiradi. Matndagi semantik zichlik va psixologik chuqurlikning mavjudligi ham yuqorida keltirilgan talablar singari muhimdir.

Badiiy asarning asl mazmunini yoritib berishga xizmat qilmaydigan so'zlarni ishlatmaslikning o'zi bir san'at bo'lganligi uchun tejamkor mualliflarni serqirra va mohir ijodkor deyishimiz mumkin. So'zga ilohiy ne'mat singari qaralmasa, ketma-ket yozishdan erinmay qatorlashtirilib sahifalar to'ldirilsa, yozuvchining o'quvchiga aytmoqchi bo'lgan dardlari yetarli bo'lmaganligidan dalolatdir va sun'iy yoinki samimiyatdan yiroq shaklda ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Shu o'rinda Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romaniga e'tibor qaratsak va uning 3 xil nashrini ko'rib chiqsak undagi ba'zi jumalarning nashrda o'zgartirilganligining guvohi bo'lamiz. Yozuvchi birinchi marta asarni yozib tugatgandan keyin ikkinchi marotaba qayta ishlashni boshlaganda, yangicha epizodlar, qo'shimcha detallar, yoinki oldingi voqealarga zid keladigan holatlarni ko'rib ularni qayta ko'rib chiqishga va mukammallashtirishga ehtiyoj sezadi. Vaholanki, asarni qayta ishlash orqali qo'shish yoki olib tashlashning o'zi ham oson ish emas aslida. Asarning 1979, 1990 va 1999-yillardagi nashrlari ozaro taqqoslash orqali qanday farqlar borligi va ularning qay darajada ahamiyatli ekanligini ko'rib chiqamiz. Romanning 1979-yildagi nashrida "Andijon. Gul va Quyun" bobida shunday berilgan. Ahmad Tanbalga navkar xabar berar ekan, u deydi:

- *Bek janoblari, sevinchi bering, - dedi. – Bobur Mirzo qo'rg'onga kirmay qaytib ketdilar.*
- *Sherimbek bilan birgami ?*

- *Ayni shunday!*"

1990-yildagi nashrga e'tibor qaratganimizda shu qismdagi jumlar o'zgarganligini ko'ramiz:

"- Bek janoblari, sevinchi bering! – dedi. Bobur Mirzo qo'rg'onga kirmay qaytib ketdilar.

- Ayni shunday! "

Ko'rinib turibdiki, dialoglar biroz o'zgargan. "Sherimbek.." deb boshlangan gap tushirib qoldirilgan, fikrlar ketma-ketligi buzilgan. Bundan keyin kelgan gaplarni o'qish orqali gaplarda g'alizlik paydo bo'lganligini ko'ramiz. Keyingi 1990-yildagi nashrida "Ayni shunday" jumlasini o'rniga "Ayni muddao!" so'zi qo'yilib qayta yozilgan.

"- Bek janoblari, sevinchi bering! – dedi. Bobur Mirzo qo'rg'onga kirmay qaytib ketdilar.

-Ayni muddao!"

Endi bu so'z esa uzukka ko'z qo'ygandek bo'ldi, lavha ham jonlandi. "Ayni muddao!" jumlasini qahramon tabiatidan, xarakteridan "oqib" chiqqani uchun uni yanada to'ldirib, boyitib, aniqlashtirib, mukammallashtirib gavdalanitiradi. O'rnida aytilgan qisqa, sodda aytilgan so'z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi. Fikr yorishadi, silliqlashadi, mantiqsizlik yo'qoladi. [3; 147-B]

Lakonik uslubning samarali tarzda foydalanilishi har qanday asarga o'zgacha joziba va ko'rk beradi. Aynan to'g'ri so'zni topish va munosib joyni tanlash orqali muallif o'z o'ylagan maqsadiga erisha oladi. Mazkur romandagi kabi holatlar ko'pgina asarlarda uchraydi va mantiqiy ketma-ketlikni ta'minlash maqsadida lakonizmdan uunumli foydalaniladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lakonik uslub– bu nutq yoki matnda fikrlarni minimal miqdorda so'z bilan, lekin maksimal darajada aniq va ta'sirli tarzda ifodalash san'ati. Uning adabiyotdagi ahamiyati nafaqat qisqalikda, balki har bir so'zning o'ziga xos semantik og'irlikka ega bo'lishidadir Lakonizm orqali badiiy adabiyotda turli xil janrlarni maromiga yetkazib ifodalash mumkin. Zero, ixchamlik orqali ifodalangan mazmun chuqur, kitobxon yoiniki tinglovchi uchun maroqli va ta'sirli bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdumannatova.N. "Hotamnoma" asarida lakonizm va alogizmlarning qo'llanilishi.// SamDu ilmiy axborotnomasi. 2023. No 4. -B.59.
2. Faulkner G. The art of brevity: crafting the very short story. University of New Mexico Press, 2023. -P.21.
3. Umurov. H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: Xalq merosi, 2004.- B 147.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 25-avgust

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.